

10-10-2019

## THE NATIONAL AND SPIRITUAL LEGACY REFLECTED IN THE STORY "ONAIZORIM"

Nilufar Shirinboyevna Tosheva

*An independent researcher of the Akisher Navoi Tashkent state University of Uzbek Language and Literature*

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

---

### Recommended Citation

Tosheva, Nilufar Shirinboyevna (2019) "THE NATIONAL AND SPIRITUAL LEGACY REFLECTED IN THE STORY "ONAIZORIM"," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 10 , Article 44. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss10/44>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact [brownman91@mail.ru](mailto:brownman91@mail.ru).

---

## THE NATIONAL AND SPIRITUAL LEGACY REFLECTED IN THE STORY “ONAIZORIM”

**Cover Page Footnote**

???????

**Erratum**

???????

## **“ONAIZORIM” QISSASIDA AKS ETGAN MILLIY-MA’NAVIY MEROS**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi Tosheva Nilufar Shirinboyevna

*Annotatsiya* Maqolada Isajon Sultonning “Onaizorim” qissasidagi folklorga oid unsurlarning poetik vazifalari ochib berilgan bo‘lib, unda xalqimiz orasida uzoq vaqtlardan beri qo‘llanilib an‘anaga aylanib ulgurgan ma‘naviy merosimiz sanalmish urf-odatlar hamda marosimlar tadqiq etilgan. Ularning qissa voqealarining xalqonaligini oshirishdagi ahamiyatli o‘rinlari ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** folklor, qissa, nasr, poetik vazifa, an‘ana, ma‘naviy meros, xarakter

## **THE NATIONAL AND SPIRITUAL LEGACY REFLECTED IN THE STORY “ONAIZORIM”**

An independent researcher of the Akisher Navoi Tashkent state University of Uzbek Language and Literature

**Abstract:** The article reveals the poetic function of folklore elements in the narrative “Onaizorim” of Isajon Sultan. It explores the customs and rituals that have been used by our people for a long time and have become tradition.

*The role in enhancing the nationalization of the narrative stories is outlined.*

**Keywords:** folklore, narrative, prose, poetic function, tradition, spiritual heritage, character

## **НАЦИОНАЛЬНОЕ И ДУХОВНОЕ НАСЛЕДИЕ ОТРАЖАЮЩЕЕ В ПОВЕСТИ «ОНАИЗОРИМ»**

Исследователь Ташкентского государственного университета в имени Алишера Навои узбекского языка и литературы Тошева Нилуфар Ширинбойевна

**Аннотация:** В статье раскрывается поэтическая функция фольклорных элементов в повествования “Онаизорим” Исожона Султана. Он исследует обычаи и ритуалы которые использовались нашим народом в течение длительного времени и стали традицией. Их роль в усилении повествовательных историй изложена.

**Ключевы слова:** фольклор повествование проза поэтическая функция традиция духовное наследие характер

Isajon Sultonning “Onaizorim” deb nomlangan qissasi o‘zining onasi xotirasiga bag‘ishlanadi. Aslida esa onalarimizni qancha madh qilib tom-tom asarlar yaratsak-da kam. Adibning bu qissasi bosh qahramoni Ra‘no ismli qiz bo‘lib, yozuvchining qissasi boshqa qissa uslubidan biroz farq qiladi. Ra‘no qissaning boshidan oxirigacha faol qatnashadi. Asar Ra‘noning yoshligidan to hayotining so‘ngi yillarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu bilan yozuvchi inson umri xuddi oqar suvdek tez o‘tishini, hayotning qadriga yetishni, undan har doim xursand bo‘lib yashashni kitobxonga uqtirmoqchi bo‘ladi. Adibning bu qissasida xalq tili unsurlari ko‘plab uchraydi. Adib qissada dastlab Ra‘noning bolaligini tasvirlab o‘tadi. Xalqimiz orasida bolalar o‘yinlari hamda qo‘shiqlari

mavjud bo`lib, bu motivlardan faqat bolalar nutqida foydalaniladi. Ra`no va dugonasi ham yumushlardan bo`shaganidan so`ng “mehmon-mehmon” o`ynaydilar. Bolalar beg`ubor, hech narsani o`ylamaydigan go`dak bo`ladilar. Har bir bola oilada kimnidir o`zining ideali qilib olib, unga taqlidlar qila boshlaydi, uning gaplarini takrorlay boshlaydi. Qaysidir farzand otasiga o`xshagisi kelsa, qaysidir biri onasiga o`xshagisi keladi. Ular otasiga, onasiga yoki bobolariga taqlid qilishadi.

Besh-olti yoshlardagi qizchalar bu o`yin turida ayollarga, ya`ni o`zlarining onalari va buvilariga taqlid qilishadi. Ularning bolalari bo`lishadi. Ularni olib bir-birinikiga mehmonga borishadi. Bolalar nafaqat kattalarning harakatlarini bajarib qolmay ularning nutqlariga ham teginib ko`rishadilar. Agar ular yaxshi insonlarning farzandlari bo`lsa, yaxshi insonlar rollarini o`ynaydi, yomon insonlar bo`lishsa, yomon odamlarning.

Xalqimizda “Qush uyasida ko`rganini qiladi” degan ibratli fikr mavjud. Darhaqiqat, bola uyida, ota-onasidan qanday tarbiya olgan bo`lsa, o`sha tarbiyani ko`chada bajarishga harakat qiladi. Shuning uchun ham ruhshunoslarimiz ota-onalarga farzandlari oldida bir-biri bilan tortishmasligi, yomon so`zlarni aytmassligi kerakligini aytishadi. Bolalar o`yinlari ham folklorning ma`lum bir ko`rinishlaridan biridir. Bolalar o`yinlari bolalarni aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik jihatdan tarbiyalash vositasidir. O`yin vaqtida bolaning nutqi o`sadi, u ijodkor bo`lib o`sadi, bolada umuminsoniy xususiyatlar shakllanadi. I.Sulton bu qissasida bolani mehribon, mehmondo`st qilib tarbiyalashda ahamiyatga ega bo`lgan o`yin turini keltirib o`tgan. Qissa qahramoni Ra`no hayoti davomida ham xuddi shunday mehribon va mehmondo`st, oqko`ngil inson bo`lib yetishadi. Adib bu o`yin turini keltirib o`tishi ham Ra`noning kelajakda qanday inson bo`lib yetishishidan darak bergan.

Adibning bu qissasini kitobxon o`qir ekan boshdan oxir sodda samimiy o`zbek qizi, ayoli va mehribon ona tasvirini ko`radi. O`zbek mentalitetiga xos an`analariga ko`zi tushadi. Qissani o`qib, voqealar bilan tanishib ketaverar ekan, kitobxonning ko`z oldiga o`z onasi keladi. Kitobxon ham adib singari ko`zning oldidan o`z yoshligidan to keksayganicha bo`lgan davri o`tadi. Bu qissa folklor elementlari asosida yaratilgan. Asar boshida adib Ra`noning bolaligini keltirib o`tganligi uchun xalqimiz orasida qo`llanadigan bolalar qo`shiqlaridan ham foydalangan. Ularning nutqida qo`llangan qo`shiqlar sodda, ravon o`qiladi. Qo`shiq ham bolani kamolga yetishida, ma`naviyatining shakllanishida ma`lum bir ahamiyatga ega. Bolalar folklori janrlari o`zining poetik tabiati, ijro uslublari bilan boshqa folklor janrlaridan farqlanadi.

“Bolalar folklori ijro o`rni va usuli jihatidan uch katta guruhga bo`linadi”

1. Bolalarning go`daklik davriga mo`ljallangan folklor janrlari: alla, suyish qo`shiqlari, olqishlari.

2. Bolalar folkloriga mansub shunday janrlar ham borki, ular qachonlardir kattalar tomonidan marosimlar sifatida ijro etilgan (“Tol popuk”, “Laylak keldi”, “Boychechak”, “Chittigul”)

3. Bolalar qo`shiqlari” [1.84]

Bu folklor turi kattalarning ijodidan keskin farq qiladi. Davrlar o`tishi bilan xalqimiz tomonidan yaratilgan bolalar o`yinlari, qo`shiqlarning ko`pchiligi yo`qolib

bormoqda. Bolalar o'yinlari ham o'g'il bolalar va qiz bolalar o'ynaydigan o'yinlarga bo'linadi.

“Qishloq qizginalarining o'yinlaridan yana nimalarni aytsa bo'ladi? Bahorda birinchi bo'lib tol och yashil tusda kurtak yozadi. Tol po'stlog'i mo'rt, yengil burab turib, ichidagi oqish chivig'ini chiqazib tashlab, popukli qismini sochlariga qo'shib o'rib olishadi, buni tolpopuk, deydilar. Yashil tolpopuklar chiroyli ko'rinadi-da. O'g'il bolalar esa tol navdasidan surnay yasab chiyillatib chalib yurishadi.” [2.295]

Bolalar folklorining o'yin janrlarida bolani tabiatiga bo'lgan muhabbati aks ettiriladi. Qo'shiq janrida ham, asosan, bolalar tabiat hodisalariga, predmetlariga, qushlarga, hashoratlarga, Oyga, Quyoshga murojaat qilishlari ko'proq uchraydi. Qissadagi Ra'no va uning o'rtoqlari nutqida uchraydigan qo'shiq ham shunday mavzuda.

“Chumoli chumoli-ya, Mayda chumoli-ya,  
Chumolini uyasi, Doshqozonni kuyasi,  
Aqlli qiz, balli qiz, Chiqaqolsin Ra'no qiz...” [2.296]

Qishloq bolalari kechgacha ko'chalarni changitib o'ynashadi. Yozuvchi bunday bolalar folklori janrini qo'llab qissa badiiyatiga estetik quvvat bag'ishlagan. Kitobxon ko'z o'ngida o'z bolaligini gavdalantira olgan. Nasriy asarlarda bunday folklor motivlarini kelishi asarning tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatib beradi. Kishiga estetik zavq beradi. Kitobxonni soflik, ezgulik bolalarcha soddalik va samimiylikka boshlaydi.

Adibning bu qissasi o'zbekona tarbiya masalalari bilan yo'g'rilgan bo'lib, bunda Ra'noning onasi tomonidan momolarimizdan avlodlarga meros bo'lib qolayotgan bola tarbiyasi an'analari aks ettirilgan.

O'zbek xalqi ayollarni qadrlaydigan, e'zozlaydigan xalqdir. Bunday an'ana ancha zamonlardan beri davom etib kelmoqda. O'zbek oilalarida o'g'il farzandlarning tarbiyasi bilan ota shug'ullanadi, qizlarning tarbiyasiga esa ona mas'uldir. “Qiz bolaga qo'l ko'tarilmasligi kerak, agar qo'l ko'tarilsa, u baxtsiz bo'ladi” –degan gap bor xalqimiz orasida. Bunday an'anaga ko'p zamonlardan beri amal qilinadi. Shuning uchun ham o'zbekona an'anaga ko'ra qizbolaning tarbiyasiga ona javobgardir. Ra'no hali kichiginaligidan onasi unga o'zbekona tarbiyani bera boshlaydi.

Qissada ona tomonidan qizbola tarbiyasi haqida juda ajoyib maslahatlar beriladi.

“- Erkak kishilarga tik qaramagin, -deydi ona.

- Nega?

-Odotsiz qizcha ekan deyishmasin-da. Erkak kishi kelayotganda yo'l bo'shat, qaqqayib turma.” [2.296]

O'zbek xalqi qizlari o'zlarining ibosi va hayosi bilan ko'p millat vakillari qizlaridan ajralib turadi. Xalqimiz oilalarida qiz bolaga erkak kishini ulug'lash o'rgatiladi, avvalo bu bilan uyidagi otasi va aka-ukalaridan boshlanadi. Qiz bola ota, akaning ko'ziga tik qaramasligi, ularning hurmatini jayiga qo'yish kerakligi ta'kidlanadi.

Ra'noning onasi uyiga o'g'il farzand olib keldi. Onasi unga alla aytardi, allaning so'zlari Ra'noning ongida, qalbida muhrlanib boraverardi. Alla hamma millat vakillari onalari nutqida bor bo'lgan qo'shiqdir.

“Sharqning buyuk allomasi Abu Ali ibn Sino o`zining “Tib qonunlari” asarida: “Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsa qo`llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo`lgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab, bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo`lgan iste`dodi hosil bo`ladi”, -deb yozgan edi. [3]

Buyuk alloma aytganidek, alla bolaning kamol topishida o`z ahamiyatiga ega bo`lgan qo`shiq hisoblanadi. Ona go`dakka alla aytganida uning ruhiga vatan tuyg`usini, mehr va muhabbat ruhini singdirib boradi.

Alla qo`shiqlari matni hamma onalar nutqida har xil yangraydi. O`zbek adabiyotida alla janri matnlarini Munavvara Yoqubbekova o`rganib chiqqan. [3.10]

Tadqiqotchi e`lon qilingan alla matnlari va mavjud arxiv materiallarini to`plab ularning mavzusini va g`oyaviy yo`nalishi jihatidan to`rt turga ajratadi:

1. Go`dakka mehr-u muhabbat, ardoq va fidoiylik izhor qiluvchi allalar
2. O`git va nasihat allalari
3. Ona iztirobi va hasratlarini ifoda qiluvchi allalar
4. Yaxshi niyat, ezgu tilak, orzu-umid allalari. [3.11]

I. Sulton ham o`z qissasida alla janridan keltirib o`tgan. Ra`noning onasi uning ukasiga alla aytayotganda u ham zavq bilan berilib tinglab turardi. Ba`zan onasining biror yumushi chiqib qolganda u onasidan eshitgan allani ukasiga aytardi.

Tilimning uzuni-yo, alla, Yuzimizning qizili-yo, alla,

Yuragimning taftiga-yo, Tandirlar qiziydi-yo, alla

Otasining davlati yo`q, alla-yo, alla, Onasining rohati yo`q, alla-yo, alla... [2.299]

Bu alla matnida onaning hasratlari aks ettirilgan. Allaning so`zlariga e`tibor beradigan bo`lsak, ko`pgina oilalarimizda faqat qiz farzandlar bo`lsa, ayolning turmush o`rtog`i o`g`il deb janjal ko`taradi, hatto ayrimlari ajrashib ham ketadi. Adib ayolning oiladagi bir dardini shu alla matniga yashirgan. “Yuragimning qizilligi sen tufayli, sen bo`lmasang, samonday sarg`ayardim” gaplari aynan beshikda yotgan o`g`il farzandga aytilmoqda.

Onalar alla matnlarini o`zlaridan to`qib chiqaradi, ular ko`pincha o`zining hasratlarini qo`shiqlarda aks ettiradi. Farzandining tezroq kamol topib, Vatanga, elga sodiq farzand bo`lishini Ollohdan so`raydilar. Qissada mifologik obrazlarni ham uchratdik.

“Uylarning omonot tomplarini ko`chirib, xas-xashaklarini uchirib, tik qadli teraklarni cho`rt uzib yuboradigan mana shu quvvatli shamollar qatida dev uchib kelishardi” [2.300]

Buvilarimiz va onalarimiz aytgan ertaklarda devlar qatnashadi. Ular bolalarning ko`z oldida gavdalanib turadi. Bunday xayoliy maxluqlar kun bo`yi ularning ko`z o`ngidan o`tib turadi. Hamma bolalar qatori Ra`noning xayolida ham shunday maxluqlar mavjud edi. Dev obrazi mifalogik obraz hisoblanadi. U faqat kishilar xayolida mavjud. Shuning uchun ham ular xayoliy uydirmalar sirasiga kiradi. Dev obrazi yozma adabiyotda juda ko`p asarlarda uchraydi. Jumladan, hazrat Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida ham Ahraman ismli devni tilga olgan. [4.419] U bahaybat va katta kuchga ega qilib tasvirlanadi. Dev obrazi turkiy xalqlarda yovuzlik tashuvchi qahramon sifatida gavdalantiriladi. Ammo Jumaniyozov Bahromboyning «O`zbek xalq eposida yalmog`iz obrazi” tadqiqoti ma`lumotiga ko`ra dev zardushtiy e`tiqodiga qadar ijobiy funksiyani bajargani aytilib, “kitob dada Qo`rqut” da aytilishicha, Qo`rqut ota devning qizidan tug`ilgan ekan. [5.38]

Dev obrazi ertaklarda ko`plab uchragani uchun bolalar xayolida ular gavdalanib, ular yolg`iz qolganlarida ko`z o`ngida gavdalangandek tuyiladi. Qissa qahramoni Ra`noning ko`z o`ngida ham xuddi shunday devlardan biri gavdalanadi.

“Shulardan biri – g`oyat uzun bo`yli, bahaybat, butun vujudi yaltirab, ko`zlarining soqqasi tinmay aylanib turadigan chimchilovchi g`alati maxluq bo`lib, hamma uxlagan, oy havolagan mahalda tomorqalar orqasidan sezdirmay chiqib kelar, maboda hech kim sezmasa, o`yib-chimchilab olishi mumkin edi” [2.329]

Adib mifologik obraz hisoblangan devdan yosh, hamma narsaga ishonuvchan, o`z xayollari bilan yashaydigan qizaloqning ruhiy holatini ochib bergan.

Adibning “Onaizorim” qissasini o`qir ekanmiz, o`zbek mintalitetiga teskari bo`lgan holatlarni ham kuzatdik. Ra`noning Xosiyat degan dugonasi bo`lib, uning dadasi har kuni ichib kelib onasini urardi. Oilasini boqayotganligini minnat qilardi. Bunday holatlar, ya`ni ayoliga qo`l ko`tarish holatlari o`zbek mintalitetiga to`g`ri kelmaydigan holdir.

Ra`noni uydan olib ketayotgan vaqtda yor-yorlar avj oladi. Xonadondan qiz bolani olib ketayotganda kelinning dugonalari yor-yorlar aytishadi. Xalq orasida ham yor-yor matnlarining ko`pgina turlari mavjud bo`lib, ularning muallifi xalq.

“Oq miltig`-o qora miltiq otgan otam Yor yor-o otgan otam...

O`z qizini-yo begonaga sotgan otam, Yor yor-a, sotgan otam...

O`z qizini o`rniga-yo bodom eksin, Bodom shoxi titrasa-yo bolam desin...

Yor yor-o, bolam desin... Uzun-uzun arg`amchi-yo, halinchakka. [2.329]

Xalq yor-yorlarining juda ko`p variantlari mavjud. Ularning deyarli hammasida ota o`z qizini qul qilib sotganligi aytiladi. Bunga sabab Sovet davrida kambag`al aholi qizlarini boylarga ikkinchi, uchinchi va hakoza xotinlikka berishgan. Ularga qulday muomalada bo`lishgan. Mustaqillikka erishgan bo`lsak-da to`ylarda hamon “o`z qizini qul qilib sotgan ota” matnlarini uchramiz. Momolarimiz to`qigan bu qo`shiqlar ushbu davrlargacha og`izdan tushmay kelyapti.

Qissada ism qo`yish rasm-rusumlari ham keltirilgan. Har qanday xonadonda yangi farzand tug`ilsa, unga ism tanlanadi va qo`yiladi.

I.Sultonning “Onaizorim” qissasi mehribon, samimiy o`zbek ayoli haqida. Bu qissa boshdan oyoq folklor motivlari bilan bezatilgan. Bu esa qissaning xalqonaligini va badiiy ruhiyatini oshirgan. Asarni o`qishligini ta`minlagan. Qissadagi an`analar, rasm-rusmlar, marosimlarning barchasi xalqimizning ma`naviy merosi hisoblanadi.

Bunday birliklar boshqa xalqlardan farqlanib turishni ta`minlovchi muhim omildir. Har qanday marosimlar, an`analar, urf-odatlar xalqning ma`lum bir taraqqiyot davridagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ma`naviy jihatdan rivojlanish darajasini ko`rsatib beradi. Qancha zamonlar o`tsa-da ularning shakl-shamoyili, vazn xususiyati o`zgarmas bo`lib turaveradi. Qissadagi an`analar, marosimlar va boshqa folklor motivlari asarning estetik vazifasini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etgan. I. Sulton asaridagi folklor motivlarining barchasi ayollar va oilaga qaratilgandir. Oila- jamiyatning bir bug`uni bo`lib, uning ijtimoiy hayotda o`z o`rni bor. Oila kishilari bevosita o`z an`ana va udumlari bilan jamiyatga bog`lanib turadi. Bizga ma`lumki, sharq adabiyoti g`arb adabiyotidan tarbiyaning yetakchiligi bilan bir-biridan farq qilib turadi. I. Sultonning “Onaizorim”

qissasi ham o`zbekona tarbiyaning muhim qonun –qoidalarini o`z ichiga olgan didaktik ruhdagi asardir.

**References:**

- 1.O`zbek folklori ocherklari. 1-jild.Toshkent,1989.
- 2.I.Sulton. Asarlar. Romanlar va qissalar. 2- jild. Toshkent, G`.G`ulom N.I.M.U. 2017.
- 3.Yoqubbekova Munavvara.Beshiklar olib kelayin,alla.Toshkent,Fan.1989.
- 4.Alisher Navoiy.“Farhod va Shirin”. G`.G`. N.A. va san`at nashryoti .T. 1989.
- 5.Jumaniyozov Bahromboy.O`zbek xalq eposida yalmog`iz obrazi.Filologiya fan.nomzodlik diss,avtoref.Toshkent,1996.